



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA MAHALLANING INSTITUSIONAL TRANSFORMATSIYASI**

**Davletov Sanjarbek**

Ma'mun universiteti professori (DSc)

**Nurullayeva Muxayyo**

Hazorasp tuman hokimi o‘rinbosari

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalla institutining institusional transformatsiyasi jarayonlari huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xususan, mahallaning davlat boshqaruvi tizimidagi maqomi, normativ-huquqiy asoslari, “yettilik” tizimi, “Onlayn mahalla” platformasi, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta‘minlashdagi roli hamda hududiy islohotlar doirasidagi amaliy natijalari Xorazm viloyati misolida ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, mahalla, institusional transformatsiya, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ijtimoiy kapital, hududiy islohotlar, kambag‘allikni qisqartirish, Xorazm viloyati.

## **ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ МАХАЛЛИ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**Давлетов Санжарбек**

Университет Маъмуна, профессор (DSc)

**Нуруллаева Мухайё**

Хазараспский район, заместитель хокима

### **Аннотация**

В статье анализируется процесс институциональной трансформации института махалли в условиях Нового Узбекистана с правовой и социально-экономической точек зрения. Особое внимание уделяется изменению статуса махалли в системе государственного управления, её нормативно-правовой базе, внедрению системы «семёрки», цифровой платформы «Онлайн махалла», а также роли махалли в сокращении бедности и обеспечении занятости на примере Хорезмской области.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, махалля, институциональная трансформация, органы самоуправления граждан, социальный капитал, региональные реформы, сокращение бедности, Хорезмская область.

## **INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF THE MAHALLA IN THE CONTEXT OF NEW UZBEKISTAN**

**Davletov Sanjarbek**

Ma'mun University, Professor (DSc)

**Nurullayeva Muxayyo**

Khazarasp District Deputy Hokim

### **Abstract**

This article analyzes the process of institutional transformation of the mahalla institution in the context of New Uzbekistan from legal and socio-economic perspectives. In particular, it examines the evolving status of the mahalla within the system of public governance, its normative-legal foundations, the implementation of the “Seven-member” model, the “Online Mahalla” digital platform, and its role in poverty reduction and employment generation, illustrated through the example of Khorezm region.

**Keywords:** New Uzbekistan, mahalla, institutional transformation, self-government bodies, social capital, regional reforms, poverty reduction, Khorezm region.

Yangi O‘zbekiston sharoitida mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar kirib bormagan soha yoki hudud qolmadi. Ushbu transformatsiya jarayonlari shahar va qishloqlar kesimida izchil amalga oshirilib, aholining kundalik turmush tarzi, ijtimoiy faolligi va hayot sifatida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Erkin va farovon jamiyat barpo etish, munosib yashash sharoitlarini yaratish hamda inson qadrini oliy

ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etishga qaratilgan yangilanishlar mamlakat taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni ifoda etmoqda.

Bugungi kunda mahalla faqat ma'muriy-hududiy birlik emas, balki ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi, ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi va davlat siyosatining samaradorligini belgilab beruvchi asosiy ijtimoiy mexanizmga aylanmoqda. Hozirgi davrda O'zbekistonda 9,4 mingdan ortiq mahalla mavjud. Mahallalarda joriy etilgan "yettilik" tizimi natijasida kredit, subsidiya, moddiy yordam kabi 100 dan ortiq xizmatlar mahalla darajasida taqdim etila boshladi. Ushbu imkoniyatlar ta'sirida 7,5 million fuqaro kambag'allikdan chiqqani, ishsizlik darajasi 2 barobarga kamaygani, 3,5 mingdan ortiq mahalla zamonaviy qiyofa kasb etganini qayd etish lozim [8]. Shuningdek, mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilib, ularga resurs, huquqiy asoslar va zarur sharoitlar yaratildi; mahallalarda bankir va soliqchilarni joylashtirish orqali iqtisodiy loyihalarni mahalla kesimida amalga oshirishning yangi bosqichi boshlandi.

Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla institutiga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, mahallalarda hokim yordamchilari instituti joriy etildi, ijtimoiy muhofaza, bandlik va tadbirkorlik masalalarini mahalla kesimida hal qilish amaliyoti kengaydi, "mahallabay" elektron monitoring platformalari ishga tushirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevralda qabul qilingan PF-5938-son Farmoni mahallaning ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, ijtimoiy muammolarni hal etish va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi maqomini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi, ya'ni mahalla faqat ijrochi emas, balki tashabbuskor va mas'ul subyekt sifatida belgilab berildi.

Raqamlashtirish yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-62-son qaroriga muvofiq "Onlayn mahalla" elektron platformasi ishlab chiqildi. Platforma 26 ta moduldan iborat bo'lib, amaliyotda "xonadonbay" va "tadbirkorbay" tahlil, qishloq xo'jaligi monitoringi, aholi daromadlari tahlili, ajratilgan yerlar monitoringi, kunlik faoliyat nazorati, KPI baholash, ishga joylashtirish, kambag'allikdan chiqarish, murojaatlar va xabarlar kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Mahalla institutining huquqiy maqomi yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo'yildi. Konstitutsiyaning 127-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati tizimiga kirmasligi, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mustaqil hal etish huquqiga egaligi belgilab qo'yildi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida mahalla institutiga alohida urg'u berilib, uni ijtimoiy kapitalni boyitish va milliy birdamlikni mustahkamlashdagi markaziy bo'g'in sifatida anglashga qaratilgan strategik yondashuv ilgari surildi [1]. Ijtimoiy kapital, odatda, jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonch, hamkorlik, ijtimoiy normalar va o'zaro aloqalar tarmog'i sifatida talqin qilinadi [5, 57]. O'zbekiston sharoitida mahalla ana shu ishonch va hamjihatlik muhitini shakllantiruvchi tabiiy ijtimoiy makon vazifasini bajaradi.

Mahallalarning kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlashdagi roli 2026-yilda belgilangan vazifalarda ham yaqqol ko'rinadi. Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida joriy yil uchun 1 million nafar aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, kambag'allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobarga oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ishsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizga tushirish kabi maqsad va vazifalar belgilandi [2]. "Og'ir" tuman va mahallalarda aholi daromadini oshirish masalasi muhokama qilinib, avvalo, barqaror elektr ta'minoti zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz raisligida 2025-yil 16-iyun kuni videoselektor yig'ilishida joylarda soha mutasaddilari va yetakchi tadbirkorlardan iborat "Islohotlar shtabi"ni tuzish tashabbusi ilgari surildi. Shu asosda Xorazm viloyatida "Islohotlar shtabi" Respublika ishchi guruhi bilan hamkorlikda 4 ta yo'nalish bo'yicha: aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, investitsiya va eksportni oshirish, shuningdek, aholi kayfiyatini yaxshilashga qaratilgan ishlar tashkil etildi. Aholi hamda tadbirkorlarni qiynayotgan muammolar, ularning yechimlari, yangi imkoniyat va takliflar bo'yicha Respublika ishchi guruhi bilan birgalikda viloyatdagi barcha imkoniyat va zaxiralar ko'rib chiqildi hamda viloyat taraqqiyotiga muhim turtki bo'ladigan tashabbuslar ishlab chiqildi.

Tadbirkorlarning takliflari asosida yangi loyihalar taqdim etildi:

Janubiy Koreyadan jalb qilingan 100 mln dollar investitsiya asosida chiqindi yoqish orqali elektr energiyasi olish loyihasi amalga oshiriladi;

Avstraliya kompaniyasi 820 mln dollar kiritib, 600 ming tonna ekologik toza aviatsiya yoqilg'isi va 50 ming tonna "yashil dizel" ishlab chiqarish loyihasini boshlaydi;

Slovakiya kompaniyasi 170 mln dollar hisobiga 5 ming gektarda raps yetishtirib, bioyoqilg'i zavodi qurishni boshlaydi. Umuman olganda, Xorazmda 2,4 milliard dollarlik yangi loyihalar tayyorlangan. Qo'shimcha imkoniyatlar asosida yana 86 million dollarlik istiqbolli tashabbuslar ishlab chiqilgan [4]. Shuningdek, Respublika ishchi guruhi bilan birgalikda viloyatdagi 509 ta mahallada 38 ta ko'rsatkich bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. Xususan, mahallalarda tadbirkorlikni kengaytirish imkoniyatlari, xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan qo'shimcha ehtiyoj, shuningdek, norasmiy band aholini rasmiy ish o'rinlariga joylashtirish masalalari o'rganildi. O'rganish natijalariga ko'ra, 10 ming nafardan ortiq tadbirkorning 3500 nafari faoliyatini kengaytirish istagini bildirdi. Ularga 329 gektar yer maydoni va 546 mlrd so'm kredit mablag'larini ajratish belgilandi. Natijada tadbirkorlar ishchilar sonini 25 mingtadan 50 mingtagacha oshirish, soliq tushumlarini esa ikki barobargacha ko'paytirish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi.

Hududiy tahlillar asosida mahallalar 5 ta toifaga ajratilib, har bir mahalla bo'yicha alohida chora-tadbirlar belgilanib, amaliy ishlar boshlab yuborildi. Ma'lumot uchun: mahallalarning 86 tasi (17 foiz) 1-toifaga (ijtimoiy-iqtisodiy holati yuqori), 163 tasi (32 foiz) 2-toifaga, 112 tasi (22 foiz) 3-toifaga, 110 tasi (21,6 foiz) 4-toifaga va 38 tasi (7,4 foiz) 5-toifaga (ijtimoiy-iqtisodiy holati nisbatan past) kiritildi. 5-toifa mahallalar soni eng ko'p Hazorasp (11 ta), Qo'shko'pir (8 ta), Shovot (5 ta) va Yangiariq (4 ta) tumanlariga to'g'ri keladi [6, 2]. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari qishloq hududlarida ayniqsa dolzarb bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim yo'nalishlarni aniqlab berdi. Xorazm viloyati hududiy birliklarining uchdan ikki qismida (mahallalarning qariyb 65 foizi) ichki yo'llarning asfalt (beton) bilan ta'minlanishi o'rtacha 48,4 foizni tashkil etadi.

Hududning aksariyat mahallalarida tadbirkorlik faolligi barqarorligini ko'rsatmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, Xorazm viloyatidagi mahallalarning 38 foizida har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish ko'rsatkichlari viloyatdagi o'rtacha ko'rsatkichga to'g'ri keladi (o'rtacha 13 ta subyekt) [7]. Shuni ta'kidlash joizki, Xorazm viloyatida o'tgan uch yil mobaynida mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida tijorat banklari tomonidan jami 2,7 trln so'm kredit ajratilib, 75 983 ta tadbirkorlik subyekti qo'llab-quvvatlandi. 2025-yilda ham viloyat bo'yicha imtiyozli kreditlash dasturlari doirasida o'tgan yilga nisbatan ikki karra ko'p — 1,4 trln so'm kredit ajratilib, 40 mingta yangi ish o'rni yaratildi. Xususan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish yo'nalishida Aloqabank tomonidan "Biznesga birinchi qadam — Yoshlar uchun" loyihasi doirasida 850 nafar yoshga 78 mlrd so'm, "Kelajakka birinchi qadam" kredit mahsuloti bo'yicha esa "Milliybank" tomonidan 490 nafar bitiruvchi yoshga 26 mlrd so'm imtiyozli kredit ajratilib, 1600 ta yangi ish o'rni yaratildi. Shuningdek, "Sayxunobod", "Uychi", "Zarbdor" va "G'ijduvon" tajribalari asosida amalga oshirilgan ishlar natijasida 10 ming nafardan ortiq fuqaroning bandligi ta'minlanib, ular barqaror va yuqori daromad manbaiga ega bo'ldilar. Mehnat bozoridagi tendensiyalar va dinamik o'zgarishlar inobatga olingan holda, har yili o'rtacha 250 ming nafar aholining bandligi ta'minlanmoqda. 2025-yil yakuni bilan viloyatda ishsizlik darajasini 3,5 foizgacha, kambag'allik darajasini esa 5,9 foizgacha kamaytirishga erishildi. Urganch shahri va Xonqa tumanini kambag'allik hamda ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha maqsadli ishlar amalga oshirildi.

Xulosa qilsak, Yangi O'zbekiston sharoitida hududiy islohotlarning asosiy mohiyati davlat xizmatlari va ijtimoiy himoya tizimini aholiga yaqinlashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, mahalla "shaxs — jamiyat — davlat" o'rtasidagi eng ta'sirchan va natijador bo'g'inga aylanib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025. – URL: Prezident rasmiy sayti
2. Asosiy kuch va e'tibor sharoiti og'ir tuman va mahallalarga qaratiladi. 23.01.2026.
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 01.05.2023-y. – 03/23/837/0241-son.
4. Xorazm viloyatidagi ishlar holati va yangi loyihalar ko'rib chiqildi. 12.09.2025.
5. Saidov S. Ijtimoiy kapital — fuqarolik jamiyatining muhim mezoni. – Toshkent, 2019.
6. Xorazm viloyati hokimligi joriy arxivi. Xorazm viloyati hokimi J. R. Rahimovning viloyatni 2023–2025-yillarda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida murojaati. – Urganch, 2025.
7. Xorazm viloyati mahallalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi: tahlil va hududiy tadbirkorlik salohiyati. 08.08.2025. – URL: Review.uz maqolasi
8. Yusupova X. Mahalla — imkoniyat, taraqqiyot va islohotlar ostonasi. 16.10.2025.